



SHARQ ALLAMALARINING MUOMILA MADANIYATI BORASIDAGI QARASHLARI

Bekzodjoan Valijonovich Xasonboyev

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik mahandislik bilim yurti Gamanitar fanlar kafedrası
boshlig'ining o'rinbosari p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muomala madaniyati psixologik aspektda tahlil qilingan. Unda Sharq allomalarining muomala madaniyati borasidagi qarashlari, muomalaning shaxs ijtimoiylashuvidagi o'rni, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni maromga keltirishda muomalaning ahamiyati kabi masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: muomala, ahloq, teranlik, iroda, idrok, nutq.

KIRISH

O'rta Osiyoda yashab ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz psixologik nuqtai nazardan muomala muammosi bilan bevosita shug'ullanmagan bo'lsalarda, biroq shaxslararo munosabatlarda uning o'rni, ahamiyati masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada ular ustoz bilan shogird ta'limiy-tarbiyaviy munosabatlarida muomalaning ahamiyati, maromi ularning o'zaro bir-birlarini tushunish, insonni inson tomonidan idrok qilish, bu jarayonda nutqning yetakchiligi, ustuvorligi yuzasidan bir qator ibratli fikr-mulohazalar qoldirganlar. Bu asnod muallimning shaxsiy fazilatlari, kasbiy mahorati, donishmandligi to'g'risida hikmatli fikrlarni, milliy va umuminsoniy g'oyalarni ilgari surganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy turmushda egallagan o'rni, mavqei, obro'si turli xususiyatli axborot (ma'lumot) uzatish, o'zga (notanish) odamlarga ta'sir ko'rsatish, inson holatiga to'g'ri baho bera olish, insonni inson tomonidan idrok qilish, vaziyatlardan olib chiqish. Imkoniyatni tashxislashga qobilligi, shaxsning o'ziga xosligi to'g'risida ilmiy-amaliy fikrlar bildirgan. Ularning ta'kidlashicha, muallimning vazifasi dono davlat rahbarining vazifasiga juda o'xshab ketadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, ustoz ko'rgan va eshitganlarining barchasini yaxshilab esda saqlab qolishi, aql-farosatiga, chiroyli nutqqa (notiqlikka) ega bo'lishi va shogirdlariga aytmoqchi bo'lgan fikrini to'la va aniq ifodalay olishi zarur. Bu borada alloma muomalaning tarkibiy qismlari, tuzilishi, vositalari, shakllari, ko'rinishlarining ijtimoiy turmushda yuksak ahamiyatini, rolini ta'kidlaydi. Forobiyning mulohazasicha. Ustoz nafaqat fan bilan shug'ullanib qolmay, balki o'z bilimlarini shogirdlariga yetkazishi, bunday mashaqqatli mehnatdan charchash nimaligi bilmasligi lozim. Ustoz may iste'mol qilishdan o'zini tiyishi, chin so'zli bo'lib yolg'onni va yolg'on aytganni yomon ko'rishi, fahmli bo'lishi va o'z or-nomusini qadrlashi, shogirtlariga nisbatan adolatli bo'lishi, ko'zlagan maqsadiga erishishda qat'iylik (qat'iyatlilik) ko'rsata bilishi lozim.

Ularning mulohazasicha, bunday inson odamiylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi. Bunday kishi har qanday xatti-harakatida xabardor bo'lgan va intilishlari tufayli baxtga erisha oladigan odamlar. Mutafakkir ustoz shaxsiga xos bo'lgan



qator fazilatlariga xolisona, oqilona sharh berishga erishgan komil insondir, xuddi shu boisdan berilgan (qoldirilgan) sharhlar, talqinlar, ilmiy ilovalar hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Abu Ali Ibn Sinoning uqtirishicha, ustoz matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va shogirdni tarbiyalash uslublarini hamda qoidalarni yaxshi biladigan odam bo'lmog'i shart. Ustoz shogirdlarning butun ichki va tashqi olamini o'rganib, uning aql qatlamiga kira bilmog'i lozim. Uning mulohazasicha, shogirdga qaratilgan har bir so'zni ustoz imo-ishoralar bilan to'ldirib bormog'i joiz. Ta'limda o'qitish shakllari va usullarini borasidagi fikrlari o'z davri o'qitish tizimi uchun yuksak qiymatga ega bo'lgan. Ibn Sinoning ta'riflashicha, ustoz o'ta bilimdon insondir. Ustoz barcha dunyoviy bilimdan, ma'naviyat olamidanda xabardor bo'lmog'i kerak, bular jumlasiga hisob-kitob ilmi hamda yaxshilik qilish kiradi. Ta'kidlab o'tilgan ilmiy kategoriyalarni aniqlashtirish bo'yicha ular quyidagicha mulohaza yuritadi. Ta'lim jarayonida nimadir olinadi; olingan narsa hamma vaqt ham ko'zga ko'rinavermaydi, xususan, yaxshi nom, xursandchilik. Soddalik kabilar, allomaning taxminicha, qayerda almashinish mavjud ekan, shubha yo'qki, o'sha joyda hisob-kitob ham mavjuddir. Oddiy xalq tilida hisob-kitob deganda, o'rtoqlar o'rtasida o'zaro fikr va narsa almashinishi tushuniladi. Maqtash, rag'batlantirish almashinish sirasiga kirmaydi. Aql farosatli odam o'ziga yoqqan har qanday narsani foydali deb biladi. Yaxshilik mukofot o'rmini bosolmaganidek, xulq-atvor qatoriga ham kira olmaydi. Yaxshilik asli beg'arazlikdan kelib chiqadi. Uningcha, ustozning barcha harakatlari faqat yaxshilikdir. Ibn Sino ustozning odamiylik, mehribonlik singari xarakter xislatlariga markaziy kategoriya sifatida alohida urg'u beradi. Bildirilgan fikrlar bugungi kundagi ma'naviyat mohiyatiga hamohangdir.

Nasriddin Tusiy "Harbiy tarbiyasi haqida" degan risolasida rahbarning yuksak insoniy fazilat (sifat)larini chuqur sharhlab bergan. Asarda ilgari surilgan ajoyib ibrotavuz g'oyalari ichida rahbar shaxsi oldiga qo'yiladigan talablar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, rahbar munozara asnosida inkor qilib bo'lmaydigan darajada isbot keltira olishni, o'z fikrining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa toza, jummalari mantiqan o'zaro bog'langan bo'lishi lozim. Rahbar sof vijdonli, rostgo'y, shoshmasdan, ishonch bilan qat'iy gapiradigan, ba'zan esa sharoitdan kelib chiqqan holda muloyim so'zlaydigan bo'lishi shart, tusiy rahbarning nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxanda, qo'pol yoki dag'al bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi. Rahbar o'z nutqida ashyoviy dalillar, maqollar, otabobolarimiz, qadimgi ajdodlarimiz fikridan misollar keltirishi joiz. Bu esa har qanday holatda ham foydalidir. Allomaning o'git-nasihatlarini, ta'limoti hozirgi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Umar Hayyomning asarlarida ham ustozning ijtimoiy turmushidagi o'rni, mavqei, kishilar bilan muomalasi, munosabati, xarakter xususiyatlari, umuminsoniy fazilatlarini haqidagi fikr mulohazalari munosib ahamiyat kasb etadi. Uning ta'kidlashicha, shogirdlar bilimlarni faqat ustozning bergan ma'lumotlari va kitob o'qish orqaligina emas, balki hayotiy hodisalarni bevosita o'rganish jarayonida, ko'nikma va malakalarini esa amaliyotda, aynan bir xil harakat va amallarni ko'p marotaba takrorlash, turli uslublarni qo'llash natijasida egallab oladilar. Uningcha, ta'limning amaliyot bilan uzviy aloqasi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish imkonini yaratadi. Umar Hayyom shogirdlarga ruhiy ta'sir



o'tkazishi, ko'rsatma berish orqali ijodiy izlanish faoliyatini faollashtirish tarafdori edi. Uning ilmiy farazi muomala sehri, faoliyat samaradorligi, ustozning odobi va nazokati, shogirdlar bilan hamkorligi ta'lim bilan tarbiya mahsulдорligini oshirish shart ekanligida mujassamlashadi. Alisher Navoiy o'zining bir qator asarlarida ustozning qobiliyati, uning obro'si, odobi, muomala madaniyati, maromi, ilm bulog'i ekanligi to'g'risida mulohaza yuritadi. Uning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlarida odob, axloq, muomala, teranlik, aql-farosatlilik, iroda kuchi, xarakter-xislatlari (poklik, samimiyluk, mas'uliyatlilik va h.k.) markaziy o'rin tutadi. Shuning uchun ijodkorlar, ustozlar ijtimoiy turmushning har qaysi jabhasida iste'dodli bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Navoiy ustozning muomalasi shirinso'zliligi e'tiborliligi har jihatdan ibrat va namuna bo'lishligi ta'lim-tarbiya garovi ekanligiga fikran ishora qiladi. Ularning asarlarida nutq madaniyati, muomala maromi, ustoz bilan shogird munosabati, ustoz donishmandligi, iqtidor egasi ekanligi to'g'risidagi boy materiallar, o'zaro munosabat muvofiqligi, shaxslararo muomala sehri bo'yicha fikrlari inson kamolotida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ular shoirlar bahsi yuzasidan mulohaza yuritilganda ham muomalaning kommunikativ, interaktiv, perseptiv tarkiblariga ahamiyat bergan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ustoz-shogird munosabati, saboq berish usullari, hamkorlikni tashkil etish xususiyatlari, aqliy teranlik, fikriy mantiqiylik, hissiy sezgirlik, jumboqlik topshiriqlar ahamiyati va ularni yechish yo'l-yo'riqlari A.Navoiy ijodiyotida alohida o'rin egallaydi. Bu narsa uning komil inson nazariyasida, kamolat (ham aqliy, ham shaxsiy) ta'limotida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Ustoz va shogird o'rtasidagi munosabat, muomala maromi to'g'risidagi mulohazalar "Avesto", "Qobusnoma", "Hotamnoma", "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Xojib) kabi ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lgan didaktik asarlarda o'zaro ta'sir etish va o'tkazishning psixologik xususiyatlari, mexanizmlari o'z aksini topgan. Sanab o'tilgan asarlarning barchasi muayyan ijtimoiy-psixologik ta'limotiga asoslanganligi, odobnoma, muomalanoma qabilida bo'lganligi tufayli tarbiyachi-murabbiyning shaxsiy xarakterologik, kasbiy sifatlarini shakllantirish bosqichlari, xarajatlari, mey'orlari chuqur bayon qilingan, izohlab berilgan va tahlil etilgan. Odamlar bilan muomala qilish uslublari, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi namoyon etish, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi baholash o'zini o'zi takomillashtirish yo'l va vositalari yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

Mamlakatimiz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining keyingi davrlarida Ahmad Donish, Bedil, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar kabi o'z zamonasining ilg'or namoyandalari, ma'rifatparvarlari bir davrning o'zida ham targ'ibotchi, ya'ni o'zgalarga ijtimoiy ta'sir o'tkazuvchi, ham muallim bo'lganliklari sababli "ustoz-shogird" munosabatlari, ma'naviyati, muomalasi, yuksak his-tuyg'ulari, jamiyatdagi o'rni, shaxslararo aloqadagi mavqei, hulq-atvori oldiga qator jiddiy, mas'uliyatli talablar qo'yadilar. Mazkur kasbning egalarida ta'kidlab o'tilgan fazilatlar shakllangan bo'lishi, faqat ana shundagina axloq, odob, muomala, intellekt darajalari bo'yicha jamiyat a'zolari o'rtasida ibratli shaxs sifatida gavdalanishi mumkin, Yuqoridagi mualliflar ijodida muayyan umumiylik mavjud bo'lib, u taraqqiyotning harakatlantiruvchisi o'qimishli, fidoyi inson, ziyoli tarbiyachi, aql-zakovatli



kishilar ekanligi, ijtimoiy ongning mezonini sifatida qabul qilish mumkinligi to'g'risidagi fikrlardir.

Mamlakatimiz taraqqiyotini navbatdagi bosqichida XX asr boshlarida ilg'or ijtimoiy-ma'naviy oqimlari qatorida jadidchilik harakat qilganlar. Milliy istiqlol, milliy vatanparvarlik tuyg'ulari, muomala maromi, ijtimoiy xulq atvor, milliy ong, mustaqil fikrlash, jangovar safarbarlik hissi singari milliy g'oyalar ularning ijod mahsullarini tashkil etadi. Millat umuminsoniy ma'naviyat hamda qadriyatlarni egallash (o'zlashtirish) uchun bilim olish, zehni, aql-zakovatini o'stirishi, ijtimoiy turmushda, jahon hamjamiyatida munosib o'z o'rnini topishi lozim, ularning umumiy qarashlariga binoan, ma'naviyat, ma'rifat, shaxslararo, millatlararo aloqa, munosabat va muomalani ilg'or uslublar yordami bilan maqsadga muvofiq amalga oshirishini ta'minlaydi, degan yuksak g'oya yotadi.

Abdulla Avloniy ta'lim tizimini, o'qitish jarayonini takomillashtirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi uslublardan foydalanish, ustozning malakasini oshirish va bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy tayyorlash muammosiga yangicha yondashgan ma'rifatparvarlardan biridir, ustozning shaxsiy fazilatlarini, muomalasi, axloqi, odobi, bilimdonligi, teranligi, tiyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql-zakovatliligi, bardoshliligi, zukkoligi, izlanuvchanligini ta'lim-tarbiya uchun asosiy manba ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ta'lim ustoz bilan shogirdning hamkorlik faoliyati, faollikka asoslanuvchi to'g'ri va teskari aloqalar majmuasi, shaxsni kamol topish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ularning mulohazasiga qaraganda, ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakli, uslubi hamda vositalarini qidirish ustozning eng muhim xislatlaridan biri bo'lishi zarur. Ustoz bilan shogirdning individual fikr almashishni imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish kafolati ekanligi uqtiriladi. Avloniy ta'limotida hamkorlik, muomala usuliga o'rgatish ustoz-shogird munosabatini yuksak darajaga ko'taradi. Uningcha, muomala muloqotning majmuasi sifatida hurmat va o'zaro hurmat tuyg'ularini ro'yobga chiqarib, shaxslararo munosabatlar samaradorligini oshirish vositasi tarzida xizmat qiladi.

XULOSA

O'rta Osiyo mutafakkirlari, mamlakatimiz ma'rifatparvarlarining boy ilmiy-nazariy, amaliy tatbiqiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-psixologik merosiga asoslanib, mamlakatimiz oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda unumli foydalanmoqdalar, ofitser va serjant kadrlar tayyorlashda allomalar ta'limotini qo'llamoqdalar, ularning merosini o'rganmoqdalar va targ'ibot qilmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абулханова-Славская К.А. Деятельности психология личности.-М.: "Наука", 1980.
2. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq.-T.: "Rahbar", 1992.
3. A'zamxo'jayeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi. Psixol. fan. nomz. dis... -T.: "Sharq", 2002.
4. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человека знания.- М.: "Наука", 1977.
5. Анатолия педогогической мқсли Узбекской ССР. (Под.Ред. С.Р.Раджапова, О.С.Аббасовой и др).-М.: "Педагогика", 1986.



6. Баратов Ш.Р. Социально – психологические и научно – практические основ создания психологической службк а Узбекистане. Автореф.дисс.докт.психол.наук.- Т.: “Шарқ”, 1998

7. Бердиев Ганжи. Ҳарбий хизматчиларда шахслараро муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари. Психол. фанл. ном. Диссертацияси.-Т.: “Шарқ”, 2000.

